

TOVARLARNI KO‘ZDAN KECHIRISH VA XATLASH

Amirqulov Sardor Tolibjon o‘g‘li

Toshkent shahar adliya boshqarmasi

Intellectual mulk huquqlarini himoya qilish sho‘basi boshlig‘i

Ashyo va hujjatlarni ko‘zdan kechirish va xatlash tushunchasi jinoyat-protsessual, ma‘muriy huquqbuzarlik va fuqarolik-protsessual normalarda mavjud, lekin mazmunan umumiy tamoyillar bir xil bo‘lib, ko‘zdan kechirish va xatlash — bu vakolatli organ tomonidan huquqbuzarlik yoki jinoyatga aloqador bo‘lgan ashyoviy dalillar, hujjatlar yoki boshqa buyumlarni aniqlab, sanab, rasmiy tartibda qayd etib, ularning butligini ta‘minlash uchun vaqtincha olib qo‘yish yoki saqlashga topshirish jarayoni hisoblanadi.

Ashyolarni xatlash vakolatli organ tomonidan ashyolarning turi, soni, holati va qiymatini qayd etish, ularni olib qo‘yish yoki saqlashga topshirish, mulk ustidan tasarruf qilishni cheklash orqali rasmiylashtiriladigan protsessual harakat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 8-avgustdagi O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risidagi O‘RQ-1080-son Qonunining 5-moddasining 5-qismiga asosan O‘zbekiston Respublikasining 1994-yil 22-sentabrda qabul qilingan 2015-XII-sonli Qonuni bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining Ma‘muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksining 290-moddasining nomi “Ashyolar va hujjatlarni olib qo‘yish hamda xatlash” (oldingi tahrirda – Ashyolar va hujjatlarni olib qo‘yish) deb o‘zgartirildi¹.

Shuningdek, MJtKning 290-moddasining ikkinchi qismi “Adliya organlari tomonidan ashyolarni ko‘zdan kechirish vaqtida (intellectual mulk obyektlariga

¹ <https://lex.uz/docs/-97664> Qonunchilik ma‘lumotlari milliy bazasi, 09.08.2025-y.

bo‘lgan huquqlarni himoya qilishda) aniqlangan huquqbuzarlikni sodir etish quroli yoki bevosita huquqbuzarlik ashyosi bo‘lgan ashyo va hujjatlar xatlanadi” deb to‘ldirildi.

Bunda adliya organlari tomonidan tekshiruv vaqtida intellektual mulk obyektlariga (*misol uchun, tovar belgisi, ixtiro, foydali model, sanoat namunasi, asarlar*) bo‘lgan huquqlarni himoya qilish vaqtida ashyolar ko‘zdan kechiriladi hamda ashyolarni ko‘zdan kechirish vaqtida huquqbuzarlik aniqlansa huquqbuzarlikni sodir etish quroli yoki bevosita huquqbuzarlik ashyosi bo‘lgan ashyo va hujjatlar xatlanadi.

Huquqbuzarlik sodir etish vositalari yoki qurollari deganda, asosan material yoki texnologik vositalar tushuniladi.

“Qurol” atamasi faqat Jinoyat kodeksining normalarida, ya’ni shaxsiy xavfsizlikni tahdid qiladigan vositalar sifatida ishlatiladi.

Intellektual mulkga oid huquqbuzarliklar esa ko‘proq kontrafakt mahsulotlarni tayyorlash, ko‘paytirish yoki tarqatish uchun ishlatiladigan ishlab chiqarish vositalari ya’ni etiketka chop etuvchi printerlar, qadoqlash va markirovka mashinalari, brend logotipini yasovchi qoliplar, mashinalar yordamida logotipni o‘yuvchi uskunalar, tikuv mashinalari, kitoblarni chop etuvchi uskunalar va boshqalar huquqbuzarlik quroli hisoblanadi:

Qisqacha aytganda, intellektual mulk huquqbuzarligi odatda jismoniy qurol ishlatilmasdan sodir etiladi.

Xatlashning yuridik mohiyati dalillarni yo‘qotish yoki yashirishning oldini olish, ularni ekspertizaga taqdim etish uchun saqlash va huquqiy isbotlash jarayoni uchun dalil yaratishdan iborat.

Xatlash huquqiy kuchga ega bo'lishi uchun quyidagi majburiy shartlar bajarilishi kerak:

1. Vakolatli mansabdor shaxs tomonidan amalga oshirilishi lozim, masalan: tergovchi, surishtiruvchi, soliq organi inspektori, bojxona xodimi, adliya organi mansabdor shaxsi. Agar vakolatsiz shaxs tomonidan xatlagan dalil haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

2. Xatlash bayonnomasi yoki dalolatnomasi tuzilishi kerak.

Bayonnoma — yuridik kuch beruvchi asosiy hujjat bo'lib, unda vaqt, manzil, mansabdor shaxsning to'liq ma'lumoti, qatnashchilar (guvohlar), xatlanuvchi ashyo/hujjatlarning batafsil tavsifi, miqdori, hajmi, seriyasi, identifikatsiya belgisi, yangi, ishlatilmagan, zarar ko'rganlik holat, har bir ashyoga raqam berilgan ro'yxati bo'lishi shart.

3. Xatlash odatda guvohlar ishtirokida amalga oshiriladi.

Xatlashda JPK bo'yicha — kamida 2 guvoh ishtirok etadi.

Ma'muriy ishlar bo'yicha — guvoh bo'lmasa, videofiksatsiya (vedioyozuv) majburiy hisoblandi.

4. Xatlanuvchi ashyoning butligi ta'minlanishi lozim.

Xatlanuvchi ashyo plombalanadi, vakolatli shaxsga topshiriladi, muhrlanadi, saqlovga qabul qilinadi. Aks holda dalil sifatida haqiqiy emas (JPK 136-modda).

Yuridik tasnifiniga ko'ra xatlash quyidagi turlariga bo'linishi mumkin.

1. Moddiy ashyolarni xatlash: tovarlar, kompyuterlar, pul, kontrafakt mahsulotlar, texnika va qurol sifatida ishlatilgan vositalar qadoqlash uskunalari.

2. Hujjatlarni xatlash: shartnomalar, hisob-kitob daftarlari, litsenziyalar, hisob-fakturalar. texnik hujjatlar, kompyuterda saqlangan hujjatlar (elektron shakl)

3. Elektron ma'lumotlarni xatlash: USB, laptop, serverdagi ma'lumotlar, elektron fayllar, ijtimoiy tarmoq sahifalari kontenti.

Xatlash vakolatsiz shaxs tomonidan amalga oshirilsa, dalolatnoma (yoki bayonnoma) rasmiylashtirilmagan bo'lsa, ashyo to'liq sanab chiqilmagan bo'lsa, zarur holatlarda videofiksatsiya (vedioyozuv) yo'q bo'lsa, xatlangan ashyoga plomb qo'yilmagan bo'lsa, bu holatlarda dalil yaroqsizga chiqadi, protsessual tartib buzilgan hisoblanadi hamda xatlashni haqiqiy emas deb topilishiga olib keladi.

Xatlash huquqiy oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Huquqbuzarlikni aniqlash uchun xatlangan ashyo/hujjat ekspertizaga yuboriladi. Agar xatlangan ashyo/hujjat huquqbuzarlik bilan bog'liq bo'lsa, ashyoviy dalilga aylanishi mumkin.

Agar jinoyatga aloqadorligi tasdiqlansa xatlangan ashyo/hujjat musodara qilinishi, agar jinoyatga aloqadorligi tasdiqlanmasa sud qaroriga ko'ra egasiga topshirilishi yoki qaytarilishi mumkin.

Ashyolar va hujjatlarni ko'zdan kechirish hamda xatlash vakolatining adliya organlariga berilishi o'z navbatida intellektual mulk obyektlarini ta'sirchan huquqiy himoya qilish va huquq egalariga yetkazilgan zararni qoplashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN MANBALAR

1. <https://lex.uz/docs/-97664> Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.08.2025-y.

2. Kumar, V., Ekwall, D., & Wang, L. (2016). Supply chain strategies for quality inspection under a customer return policy: A game theoretical approach. *Entropy*, 18(12), 440.
3. Cheikhrouhou, N., Sarkar, B., Ganguly, B., Malik, A. I., Batista, R., & Lee, Y. H. (2018). Optimization of sample size and order size in an inventory model with quality inspection and return of defective items. *Annals of Operations Research*, 271(2), 445-467.